

IJTIMOY ME'YORLARDAN OG'ISHGAN O'SMIRLAR XULQ-ATVORINI
PSIXOLOGIK TASHXIS QILISH

Yuldasheva Dilrabo Muxtarjonovna

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga
qarashli 33-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan va o'smirlik davrida yuzaga keladigan deviant xulq-atvorli yoshlarni psixologik tashxis qilish masalalarida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy me'yor, xulq-atvor, o'smirlik davri, individ, shaxs, yosh davrlari, tarbiyasi qiyin, fenomenologiya, dezadaptatsiya.

Inson xulqida jamiyatda qabul qilingan me'yor va mezonlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biriga aylangandir. Ushbu me'yor va mezonlar nafaqat ijtimoiy barqarorlikka balki individning o'zini ham ruhiy barqarorlik va taraqqiyoti uchun zarurdir. Jamiyatda axloqiy ma'naviy madaniy xulq ko'rinishlari shakllanishi, ushbu talablar darajasidan og'ish masalalari qadimdan allomalarimiz tomon Axloqiy me'yorlardan og'ish muammolari, Abu Nasr Al Forobiyning «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Baxtga erishuv haqida», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida ko'tarilgan. Alloma o'z qarashlarida fazilatga juda katta o'rin beradi. Arastuga o'xshab, u ham fazilatlarini ikki qismga: fozoil nutqiya (aql idrokka asoslangan fazilatlar) va fazoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning o'rtalik xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi. Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlangani bilan belgilanadi. Zero, jamiyatda axloq-odob yo'qolsa jamiyatda ma'naviy jihatdan kambag'al insonlar ommasi vujudga keladi. Ko'pchilik bilan doimo muloqotda bo'lgan, bolalikning sho'xligi, odobsizligini boshdan kechirgan bolalar hayot qadriyatlarini, ko'pchilik bilan muloqot usullarini egallashadi, hayotning turli qaltis vaziyatlariga ham tayyor bo'lishadi.

Bolalikdan kattalikka o'tish hammada ham tekis kechavermaydi. Shunga ko'ra o'smirlikda shaxs shakllanishi 3 turga bo'linadi (E. Shpranger).

Birinchi tur uchun davrning ikkinchi marta dunyoga kelishdek jo'shkin, krizisli kechishi xosdir. Uning yakuni - yangi "Men"ning yuzaga kelishi.

Ikkinchi tur uchun davrning silliq, kuchli asabiylashishlarsiz shaxs shakllanishi xosdir.

Shaxs shakllanishining uchinchi turiga esa ongli va faol ravishda o'z-o'zini tarbiyalash, xavotir va inqirozlarni mustaqil yengish xosdir. Sh. Byuler jismoniy pubertat bilan bir qatorda psixik pubertatni hamda uning ichidagi 3 ta fazani ajratdi. Birinchisi - bu psixik pubertatlikning arafasi bo'lib, 11-12 yoshli o'smirda quyidagi aloxida belgilar paydo bo'ladi: beboshlik, urushkoklik, bolalar o'yinlari unga qiziq ko'rinmaydi, undan kattarok o'smirlarning o'yinlari esa tushunarsiz bo'ladi. "Arafa" undan keyingi 11-13 yoshdagi qizlar va 14-16 yoshdagi o'g'il bolalarni o'z ichiga olgan salbiy (negativ) faza bilan almashinadi. Atrof-muhitga o'tuvchi tez qo'zgaluvchanlik va bezovta holat, noziktabiylilik, jismoniy va ruhiy darmonsizlik, o'zidan norozilik, kabilar bu davrga xos asosiy belgilardir. Shuning uchun ko'pchilik o'smirlarda o'ziga va atrofida qilargan bo'lgan nafratni va uning natijasi bo'lgan o'zini yolg'iz, begona va boshqalar tomonidan tushunilmagan sezish kabi holatlarni uchratishimiz mumkin. Bu vaqtda bola asosan, qarama-qarshiliklarga, salbiy ta'sirlarga o'ta sezgir bo'lib qoladi, bunday vaziyatlar bolada yoki agressiv o'z-o'zini himoya qilishni yoki passiv melanxoliyani keltirib chiqaradi. Salbiy faza yakuni - jismoniy yetilishning yakunlanish vaqtiga to'g'ri keladi.

Ijobiy (pozitiv) faza o'smirning muhitning ijobiy taraflariga (aspektlariga) ta'sirchan bo'lib qolishi bilan boshlanadi. Uning oldida xursandchilikning manbalari paydo bo'ladi, ularning ichidan Sh.Byuler birinchi o'ringa "tabiatning hayajonlanishi" - go'zallikni ongli hayajonla-

nishini qo'yadi. Rivojlanish uchun qulay sharoitda xursandchilikning manbalari san'at va ilm bo'lishi mumkin. Bularga "eng kuchli tangliklardan ham chiqarib yuboruvchi" muxabbat ham qo'shiladi (V. A. Avarin Psixologiya detey i podrostkov. SPb., 1998. S. 308-309). Bu yoshda jinsiy yetilish natijasida bola organizmida va ruxiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi.

Bu bolaning qiziqishlar soxasini anchagina o'zgartiradi. Bunda qiziqishlar rivojining ikki xususiyatini ko'rishimiz mumkin: bir tomondan yangi qiziqishlar va mayllarning paydo bo'lishi (ijtimoiy hayotga, texnikaga, qahramonlik va sarguzashtlarga boy kitoblarni o'qishga; ko'pchilikda sportga qiziqish kuchayadi), ikkinchi tomondan – avval o'rnatilgan qiziqishlar tizimining yo'qolishi (undagi negativizm, qarama-qarshi xarakter shundandir). L.S. Vigotskiyning yozishicha aynan shu ikki xususiyatning uyg'unlashuvi bir qarashda g'alati fakti - qiziqishlar kamayishi yoki ba'zan umuman yo'qolishini xarakterlaydi. Bu vayron etuvchi faza davomida o'smir o'z bolaligiga barham beradi, shuning uchun ham L. N. Tolstoy bu bosqichni «o'smirlik saxrosi» deb ataydi. Bu fazaga pessimistiklik, jamoa bilan aloqalarning buzilishi, bolalar orasidagi oldingi o'rnatilgan munosabatlarning uzilishi, shu bilan birga do'stona munosabatlar ham, yolg'izlikka intilish, boshqa insonlarga bo'lgan munosabatlarning keskin o'zgarishi, jamiyat xulq-atvor qoidalariga bo'ysunmaslik kabilar xosdir. Natijada ko'pchilik o'smirlar individual yo'nalishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda individuallikning cho'qqisi o'rta yoshdagi o'smirlarga to'g'ri keladi, katta yoshdagi o'smirlarga kelganda esa uning nisbati kamaya boradi, o'zining manfaatlariga daxldor bo'lgan shaxslarning hayoti bilangina qiziqadilar. Jamiyat ayol kishidan ko'proq intizomlilikni hamda mustaqillikka nisbatan itoatkorilikni, o'zgaralar dardiga hamdard bo'lishini, boshqalarni fikrini o'z fikriga nisbatan ustun qo'yishni kutadi. Ayol kishi ko'p jixatdan itoatkor, sabrli, kechirimli va ko'nuvchan bo'lishi kerak. Bu xislatlar ko'p jixatdan shaxsning insonparvar yo'nalishiga xosdir. Erkak kishiga mardlik, faollik, mustaqillik, agressiv xatti-harakat va ko'proq mustaqil fikrlash va faoliyat ko'rsatish xosdir. Shuning uchun uning xatti-harakatlariga individuallik xos bo'ladi. Psixologik nuqtai-nazardan xatar guruhidagi bolalar uyushmagan bo'sh vaqt, hissiy-irodaviy nazoratning past darajasi, o'zini tuta bilmaslik va o'ziga ishonmaslik, o'z-o'zini baholashning va bilishga oid faollikning pastligi, o'qishni istamaslik, kuchli taassurotlar olishga intilish bilan xarakterlanadilar, shuningdek, ular xavotirli, intizomsiz, nosog'lom turmush tarzini olib boradilar, psixofaol moddalarni iste'mol qiladilar. Shunday qilib, "xatar guruhidagi bolalar"ga quyidagi toifa bolalari taalluqli:

-giperfaol, tajovuzkor, fe'l-atvorning tipik aksentuatsiyasi, psixopatik ko'rinishlari bo'lgan bolalar;

- deviant (ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan) va addiktiv (psixofaol moddalar, internet va boshqalarga tobe) xulqli bolalar;

- jismoniy va psixik salomatligida muammolari bo'lgan, umumiy rivojlanishida ortda qolgan bolalar;

- yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar (bunda asosan ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasalardan tashqaridagi, qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalar nazarda tutilmoqda);

- notinch, asotsial oilalardan chiqqan bolalar;

-tarbiyasi og'ir, pedagogik jihatdan qarovsiz, maktabga va ijtimoiy moslashmagan bolalar;

- yashash, tarbiya, ta'limning alohida sharoitlariga muhtoj bolalar;

- voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni oldini olish bo'limlari hisobida turuvchi; sudlanganlar (shartli ravishda, jazo muddatini uzaytirish bilan ozodlikdan mahrum qilinganlar, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan), jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar.

Umuman olganda, xatar guruhidagi bolalar ma'naviy, axloqiy-irodaviy, qator hollarda esa jismoniy va intellektual rivojlanishida og'ishlari bilan xarakterlanadi.

Axloqdagi og'ish yana quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

-Asotsial axloq - umuminsoniy qadriyatlarini inkor etish, ijtimoiy loqaydlik, reallikni idrok etish va o'zini nazorat qilish darajalarining pastligi.

-Delikvet axloq – bunga aksariyat hollarda jinoiy hatti-harakatlar kiradi;

-Autodestruktiv (o'zini o'zi buzuvchi) – bunday axloq namoyon bo'lishini o'ziga nisbatan jismoniy, psixologik salbiy (buzg'unchi) ta'sir qiluvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

-Addiktiv (tobelangan) axloq - psixotrop, giyohvand moddalarga tobelik, video yoki kompyuter o'yinlari, ijtimoiy tarmoqlar, internetga tobelik ayni shunday axloq ko'rinishlaridir.

Tarixiy-madaniy, biogenetik, sotsiogenetik kabi bir qator nazariyalarda ta'kidlanadiki, inson axloqidagi og'ishlarning asosiy sabablari quyidagilardir:

-Jamiyatning me'yorlariga hayot tomonidan ilgari suriladigan talablarning to'g'ri kelmasligi;

-Aniq bir shaxsning qiziqishlariga hayotning to'g'ri kelmasligi;

Ayni ushbu jarayonlarda tarbiyalanuvchidagi o'zgarishlar tendentsiyasi aniqlanadi hamda shaxsda shakllanib boshlagan insayt (muammolarni ratsional idrok etish orqali, moslashuvchanlik bilan mustaqil hal eta olish ko'nikmasi)ga olib boruvchi ustanovkalar hamda ratsional g'oyalar tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratiladi. Xulqi og'ishgan bolalar deviant xulq-atvordagi bolalar deb ham ataladi hamda ular xatar guruhiga kiritiladi. Xulqi og'ishlikni oldini olish chora-tadbirlari kichik bola yoshidan olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xulqi og'ishgan bolalar bilan ishlashda e'tibor berish kerak bo'lgan eng muhim jihatlar: bolaga uning yomon, tarbiyasi og'ir ekanligini aytmaslik va unga yomon tamg'asini bosmaslik kerak, gumanistik yondoshuv asosida bola bilan ishlash lozim. Doimo yodda tutish joizki yomon bolalar bo'lmaydi... yomon tarbiyachilar, yomon ota-onalar, yomon ijtimoiy muhit yoki o'zini shunchaki yomon his etayotgan bolalar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Баратова Психология назарияси ва тарихи / 2019 й. 121-б.
2. Olimov L.Ya. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. B.: Buxoro viloyat bosmaxonasi. 2018.- 178 b.
3. Tadjieva S.X. Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". Toshkent.: RBIMM, 2011 y. 142 b

Internet manbalar:

4. www.inter-pedagogika.ru
5. cyberleninka.ru/article/